



AYRIM XORIJIY MAMLAKATLARDA ADVOKATLIK FAOLIYATINI LITSENZIYALASHNING O‘ZIGA XOS

JIHATLARI

Gulmurodov Firuzbek Olimjon o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19846836>

ARTICLE INFO

Received: 14th April 2026

Accepted: 15th April 2026

Published: 28th April 2026

KEYWORDS

advokatlik faoliyati, litsenziyalash, advokatura, malaka imtihoni, stajirovka, xorijiy tajriba, Qozog‘iston, Moldova, Belarus, Armaniston, huquqiy tizim, advokatlar palatasi, huquqiy tartibga solish, kasbiy faoliyat, qiyosiy tahlil.

ABSTRACT

Mazkur ishda ayrim xorijiy davlatlar — Qozog‘iston, Moldova, Belarus va Armaniston Respublikalarida advokatlik faoliyatini litsenziyalash tizimining huquqiy asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida litsenziya berish tartibi, malaka talablari, stajirovka va malaka imtihonlari, shuningdek advokatura institutining tashkiliy-huquqiy modeli o‘rganildi. Xorijiy davlatlar tajribasi asosida advokatlik faoliyatini tartibga solishda davlat organlari va advokatlar professional birlashmalarining o‘rni hamda vakolatlari tahlil etildi.

Advokatlik faoliyati huquqiy davlat tizimining muhim va ajralmas bo‘g‘ini hisoblanib, u jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari, shuningdek qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishda alohida o‘rin egallaydi.

Advokatlik faoliyatini tartibga solish, xususan uni litsenziyalash mexanizmlari har bir davlatning huquqiy tizimida muhim o‘rin tutadi. Ayrim xorijiy mamlakatlarda advokatlik faoliyatini litsenziyalash tizimi turli yondashuvlar, talablar hamda tashkiliy mexanizmlar asosida shakllangan bo‘lib, bu mazkur sohada sezilarli tajriba to‘planganini anglatadi. Shu bois, xorijiy davlatlar tajribasida advokatlik faoliyatini litsenziyalashning o‘ziga xos jihatlari o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Mazkur tahlil milliy advokatura tizimini takomillashtirish hamda uni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Qayd etish lozimki, Qozog‘iston Respublikasining 2014-yil 16-maydagi № 202-V “Ruxsatnomalar va xabarnomalar to‘g‘risida”gi Qonunining 1-ilovasida (jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash) nazarda tutilgan litsenziyalanadigan faoliyat turlari qatorida advokatlik faoliyati ham alohida qayd etilgan.

Shu bilan birga, mamlakatning 2018-yil 5-iyuldagi № 176-VI “Advokatlik faoliyati va yuridik yordam to‘g‘risida”gi Qonunining 32-moddasiga muvofiq, advokat — Qozog‘iston Respublikasi fuqarosi bo‘lib, oliy yuridik ma‘lumotga ega, advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olgan, advokatlar kollegiyasi a‘zosi hisoblangan hamda mazkur qonun doirasida professional asosda yuridik yordam ko‘rsatuvchi shaxs hisoblanadi.

Mazkur Qonunning 41-moddasi birinchi qismida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya tushunchasiga huquqiy ta'rif berilgan. Unga ko'ra, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya — advokatlik faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi ruxsat etuvchi hujjat bo'lib, u talabgor tomonidan belgilangan tartibda stajirovka o'talganidan hamda qonunchilikda nazarda tutilgan attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tilganidan so'ng vakolatli litsenziyalovchi organ tomonidan beriladi.

Bundan tashqari, Qozog'istonda litsenziyalovchi organ tomonidan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun berilgan litsenziyalar reyestri yuritiladi hamda ushbu reyestr ma'lumotlari, shuningdek amalda faoliyat yuritayotgan advokatlar ro'yxati rasmiy internet-resurslarda muntazam e'lon qilib boriladi.

Shuningdek, Qozog'iston Respublikasi Adliya vazirining buyrug'i bilan tasdiqlangan "Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya berish hamda davlat xizmatlarini ko'rsatish qoidalari" mazkur litsenziyani berish tartibi, shartlari va protseduralarini batafsil tartibga soladi.

Shu o'rinda, Moldova Respublikasining mazkur sohadagi qonunchiligiga xos ayrim jihatlarni alohida e'tirof etish lozim.

Ma'lumot uchun ta'kidlash joizki, 2025-yilda mamlakat parlamenti tomonidan "Advokatura to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirishlar keng jamoatchilik muhokamalariga sabab bo'ldi. Moldova Respublikasi Prezidenti bu borada advokatura sohasida chuqur va kompleks islohotlar zarurligini qayd etib, bunday o'zgarishlar yuristlar hamjamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqaro hamkorlar ishtirokida keng muhokamalar asosida amalga oshirilishi lozimligini ta'kidladi.

Moldova Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni 1-moddasi 2-qismiga muvofiq, advokatura — bu qonun asosida berilgan litsenziya negizida advokatlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuristlarning professional hamjamiyati sifatida e'tirof etiladi. Mazkur Qonunning 8-moddasida esa advokat maqomini olish uchun belgilangan tartibda litsenziya olish zarurligi mustahkamlangan.

Shuningdek, Qonunning 11-moddasida advokatlik faoliyatiga ruxsat berish tartibi aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra mazkur ruxsat malaka imtihoni natijalari asosida amalga oshiriladi. Malaka imtihoni advokatlik faoliyatini litsenziyalash komissiyasi tomonidan qabul qilinadi, imtihon o'tkazish tartibi esa Adliya vazirligi tomonidan mazkur komissiya bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatini litsenziyalash tartibi asosan qonunosti hujjatlar bilan tartibga solingan bo'lsa, Moldovada ushbu institut bevosita qonun darajasida mustahkamlangan. Xususan, "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya advokat maqomini tasdiqlovchi yagona hujjat sifatida e'tirof etilib, u Adliya vazirligi tomonidan advokatlik faoliyatini litsenziyalash komissiyasining tegishli qarori qabul qilingan kundan e'tiboran 10 kun ichida berilishi belgilangan.

Moldova qonunchiligiga ko'ra, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya cheklanmagan muddatga beriladi va mamlakat hududining butun qismida amal qiladi. Shuningdek, litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror ustidan sud tartibida shikoyat qilish imkoniyati nazarda tutilgan. Litsenziya to'lov asosida berilib, belgilangan miqdordagi to'lov (450 ley) Adliya vazirligi hisobiga o'tkaziladi. Ushbu jihatlarda ayrim holatlarda milliy qonunchilik bilan o'xshashlik kasb etadi.

Qonunning 19-moddasiga muvofiq, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya olish maqsadida Advokatlik faoliyatini litsenziyalash komissiyasiga bir qator hujjatlar taqdim etiladi. Jumladan, malaka imtihoniga qo'yish to'g'risidagi ariza, yuridik ma'lumotni tasdiqlovchi diplom nusxasi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi, mehnat daftarchasi (mavjud bo'lsa), kasbiy stajirovka shartnomasi, stajirovka rahbari tomonidan berilgan tavsifnoma va hisobot, sudlanganlik mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma, sog'liq holatini tasdiqlovchi tibbiy hujjatlar hamda litsenziya uchun to'lov kvitansiyasi shular jumlasidandir.

Belarus Respublikasining 2011-yil 30-dekabrda № 334-Z "Advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasi 1-qismiga muvofiq, Belarus Respublikasida advokat bo'lish huquqiga ega bo'lgan shaxslar qatoriga Belarus Respublikasi fuqarolari, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan, mazkur Qonunda belgilangan tartibda stajirovkadan o'tgan va malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan, advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olgan hamda hududiy advokatlar kollegiyasiga a'zo bo'lgan jismoniy shaxslar kiradi.

Shuningdek, Qonunning 11-moddasida advokatlik faoliyatini boshlash tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra advokatlar faqat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda litsenziya olgan va hududiy advokatlar kollegiyasiga a'zo bo'lganidan keyingina advokatlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

Armaniston Respublikasining 2004-yil 14-dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni III bobi "Advokat va uning faoliyati", IV bobi esa "Advokatlik faoliyatini litsenziyalash" deb nomlangan bo'lib, mazkur hujjatda advokatura institutining tashkiliy-huquqiy asoslari batafsil tartibga solingan.

Qonunning 17-moddasiga binoan, advokat — bu qonunda belgilangan tartibda advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olgan, advokatlar palatasi a'zosi bo'lgan hamda qasamyod qilgan shaxs hisoblanadi. Shu bilan birga, advokat huquqiy masalalar bo'yicha mustaqil maslahatchi sifatida e'tirof etiladi.

Armaniston qonunchiligida advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaning umumiy va maxsus turlari mavjud bo'lib, maxsus litsenziya qonunda belgilangan hollarda Kassatsiya sudida advokatlik faoliyatini yuritish maqsadida beriladi. Bunday litsenziyani olish uchun advokatlar palatasi raisiga tegishli ariza taqdim etilib, unga malaka komissiyasi tomonidan berilgan sertifikat va mavjud advokatlik litsenziyasi nusxasi ilova qilinadi.

Armaniston Respublikasida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini olish uchun oliy yuridik ma'lumot yoki yuridik mutaxassislik bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lish, kamida ikki yillik yuridik ish tajribasiga ega bo'lish, malaka imtihonidan o'tish hamda tegishli sertifikatni olish talab etiladi.

Dastlab nomzod advokatlar palatasiga a'zo bo'lish to'g'risida ariza taqdim etadi va unga malaka komissiyasi tomonidan berilgan sertifikat nusxasini ilova qiladi. Palata kengashi ushbu arizani bir oy muddatda ko'rib chiqib, tegishli qaror qabul qiladi. Ushbu jarayonda millati, fuqaroligi, irqi, jinsi, tili, dini, siyosiy qarashlari, ijtimoiy kelib chiqishi yoki mulkiy holatiga ko'ra kamsitish taqiqlanishi mustahkamlangan.

Armaniston tajribasini milliy qonunchilik bilan solishtirganda, litsenziyaning muddatsiz berilishi hamda uni rad etish ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatining mavjudligi o'xshash jihatlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, asosiy farq shundaki, Armanistonda advokatlik faoliyatini litsenziyalash vakolati adliya organlariga emas, balki advokatlar palatasiga yuklatilgan bo'lib, litsenziya palataga a'zo bo'lgan shaxsga rais imzosi va muhr bilan tasdiqlangan holda qisqa muddatda (5 kun ichida) beriladi.

O'rganilgan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, advokatlik faoliyatini litsenziyalash tizimi har bir mamlakatning huquqiy an'analari, davlat boshqaruvi modeli va advokatura institutining mustaqillik darajasiga bevosita bog'liq holda shakllangan. Qozog'iston, Moldova, Belarus hamda Armaniston Respublikalarining qonunchiligi tahlili advokatlik faoliyatini tartibga solishda litsenziyalash mexanizmi markaziy o'rin egallashini tasdiqlaydi.

Xususan, mazkur davlatlarda advokat maqomini olish uchun oliy yuridik ma'lumot, stajirovka, malaka imtihoni va tegishli litsenziya olish kabi qat'iy talablar belgilangan bo'lib, bu kasbiy faoliyatning sifatini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, litsenziyaning berilishi va amal qilish tartibi turlicha institutsional yondashuvlar asosida amalga oshiriladi: ayrim davlatlarda bu vakolat adliya organlariga yuklatilgan bo'lsa, boshqalarida advokatlar palatalariga berilgan.

Qiyosiy tahlil natijalari advokatlik faoliyatini litsenziyalash sohasida umumiy tendensiya sifatida kasbiy mustaqillikni kuchaytirish, malaka talablarini oshirish hamda advokatura institutining o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishga intilish mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim davlatlarda litsenziyalash tartibining bevosita qonun darajasida mustahkamlanganligi ushbu institutning huquqiy barqarorligini oshiradi.

Umuman olganda, xorijiy tajribani o'rganish milliy advokatura tizimini takomillashtirish, litsenziyalash jarayonlarini optimallashtirish hamda ularni xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Электронное лицензирование Республики Казахстан
<https://elicense.kz/?lang=ru>
2. Правила оказания государственной услуги «Выдача лицензии на занятие адвокатской деятельностью», утвержденные приказом и.о. Министра юстиции РК от 28 мая 2020 года № 61 <https://adilet.zan.kz/rus/docs/V2000020774>
3. Закон Республики Молдова от 12 февраля 2026 года № 10 «О внесении изменений в Закон об адвокатуре № 1260/2002»
4. ПАРЛАМЕНТ МОЛДОВЫ ПЕРЕСМОТРЕЛ ЗАКОН ОБ АДВОКАТУРЕ ПОСЛЕ ЗАМЕЧАНИЙ ПРЕЗИДЕНТА.
<https://grt.md/articol/parlament-moldovy-peresmotrel-zakon-ob-advokature-posle-zamechanij-prezidenta>
5. <https://grt.md/articol/parlament-moldovy-peresmotrel-zakon-ob-advokature-posle-zamechanij-prezidenta>
6. ЗАКОН РЕСПУБЛИКИ БЕЛАРУСЬ. 30 декабря 2011 г. № 334-З Об адвокатуре и адвокатской деятельности в Республике Беларусь
<https://etalonline.by/document/?regnum=H11100334>
7. <https://www.arlis.am/hy/acts/78982>